

KORRUPSIYA: UNING TARIXIY ILDIZLARI, KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH USULLARI

Narzulloyeva Nasiba Qudratovna

Samarqand davlat universiteti

Yuridik fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi

4- bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada korrupsiya, uning tarixiy ildizlari, korrupsiyaga qarshi kurash usullari haqida so`z yuritilgan. Korrupsiya bu jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzulishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Kalit so`zlar: korrupsiya, demokratiya, huquq, konstitutsiya, poraxo'rlik.

Korrupsiya bu – jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzulishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Ta'kidlab o'tish o'rinniki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag'al bo'lismidan qat'iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo'yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti.

Biz quyida korrupsiyaning tarixiy ildizlariga va unga qarshi kurashish xususida fikr yuritmoqchimiz: Korrupsiya (lot. Corrumpere – buzmoq) termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qonunchilik va axloq qoidalariiga zid ravishda foydalanishini anglatadi.

Ko'p hollarda bu atama siyosiy elitadagi byurokratik apparatga qarata ishlatiladi. Korrupsiya ko'plab davlatlarning jinoyat va ma'muriy qonunchiligi bilan huquqqa qarshi harakat sifatida ta'qib qilinadi.

Korrupsiyaning tarixiy o'zaklari juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma'lum mavqega ega bo'lish uchun qabila sardorlariga sovg'alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O'sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziylashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to'siq ekanligini ko'rsatdi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shummer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni ayniqla huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma'lum. Chunki bu holat davlatning obro'siga qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq qoralanadi. Jumladan, Injilda "Sovg'alarni qabul qilma, chunki sovg'a ko'rni ko'radigan qiladi va haqiqatni o'zgartiradi" deyilgan bo'lsa, Qu'roni Karimda "Boshqalarning mulkini nohaq yo'l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo'lgan narsalarni olish uchun o'z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar" deyilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashgan hukmdor sifatida xotira qolgan shaxs Uruinimgina – eramizdan avvalgi XXIV asrning ikkinchi yarmida Lagash shahar – davlatining shummerlar podshohi hisoblanadi. Korrupsiya uchun boshqalarga namuna bo'ladigan va ko'pincha shafqatsiz jazolar qo'llanilishiga qaramay, unga qarshi kurash kutilgan natijalarga olib kelmagan. Eng yaxshi holatda xavfli jinoyatlarning oldini olishga erishilgan, lekin mayda kamomad va poraxo'rlik darajasida korrupsiya ommaviy xarakterga ega bo'lgan.

Korrupsiya muhokama qilingan dastlabki asar – "Artxa-shastra" – eramizdan avvalgi IV asrda Bxarat (Hindiston) vazirlaridan biri nomidan Kautilya taxallusi ostida chop etilgan. Unda muallif "podshohning mulki, hatto kichik miqdorda bo'lsa ham, bu mulkni idora qiladiganlar tomonidan o'zlashtirib olinishi mumkin emas" degan xulosa chiqargan.

Xuddi shu kabi muammolarga Qadimgi Misr fir'avnlari ham duch kelgan bo'lib, bu yerda erkin dehqonlar, hunarmandlar va hatto harbiy a'yonda nisbatan ham o'zboshimchalik va zo'ravonlik ishlatgan hamda qonunbuzarliklarni o'ziga kasb qilib olgan amaldorlar byurokratik apparati yuzaga kelgan edi. Bizning kunlargacha yetib kelgan Itaxotel degan shaxs o'z pand-nasihatlarida quyidagicha tavsiya beradi: "Boshliq oldida belingni bukib ta'zim qil, shunda sening uyingda tartib bo'ladi, sening maoshing joyida bo'ladi, kim boshliqqa qarshilik ko'rsatadigan bo'lsa, uning hayoti oson kechmaydi, lekin u iltifot ko'rsatganda esa yashash uchun oson bo'ladi". Sudyalar sotqinligi alohida tashvish uyg'otardi, chunki bu mulkning noqonuniy taqsimplanishiga va nizolarni huquq maydonidan tashqarida hal qilishga olib kelgan. Bejizga barcha dinlarda korrupsiya turlari orasida birinchi navbatda sudyalarni por berib sotib olish qoralanmaydi:

"...boshliq sovg'a talab qiladi, suda pora evaziga sud qiladi, katta amaldorlar esa o'z xohishiga qarab bizlarni jazolaydi va ishlarni noto'ri talqin qiladi...".

Qadimgi Rim qonunlarida "corrumpere" atamasi "sudda ko'satmalarni pulga sotib olish" va mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qonunchilik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi. Ko'p hollarda bu atama siyosiy elitadagi byurokratik apparatga qarata ishlatiladi. Korrupsiya ko'plab davlatlarning jinoyat va ma'muriy qonunchiligi bilan huquqqa qarshi harakat sifatida ta'qib qilinadi.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib jamiyat davlat boshqaruv apparatining ish sifatiga tobora ko'proq ta'sir ko'rsata boshladi. Bu o'sha davrda qabul qilingan bir qator qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. Jumladan, 1787 – yilda qabul qilingan AQSh Konstitutsiyasida pora olish AQSh Prezidenti impeachmentga tortish mumkin bo'lgan ikki jinoyatning biri sifatida ko'rsatib o'tilgan. Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va ularning mamlakat hayotidagi o'rnining oshib borishi XIX – XX asrlarda rivojlangan davlatlarda korrupsiyaning dunyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan ancha kamayishiga olib keldi.

Ushbu illatni tadqiq qilgan bir qator yirik mutaxassislar quyidagi faktorlarni korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillar sifatida ko'rsatadi:

Ikki xil ma'noni anglatuvchi qonunlar – ushbu vaziyat huquqni qo'llovchi mansabdor shaxs tomonidan qonunlarni turlicha qo'llash imkonini yaratadi. Shuningdek, ayrim mutaxassislar jinoyat, ma'muriy qonunchilikdagi "vilka" sanksiyalarni ham korrupsiyaga qulay sharoit miqdori yo'qligi sudyaga uni o'z xohishiga qarab qo'llashga sharoit yaratib beradi;

Aholi huquqiy savodxonligining pastligi – aholi tomonidan qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik mansabdor shaxsga o'zining shaxsiy manfaati yo'lida qonunlardan foydalanishga qulay sharoit yaratadi; Mamlakatdagi siyosiy vaziyatning notinchligi – mamlakatdagi notinchlik birinchi navbatda aholi ongida hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xi洛f faoliyat bilan bog'liq, degan mutlaqo axloqqa zid nuqtai nazar shakllanishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida korrupsiyaga qulay sharoit yaratadi;

Ijro hokimiyatining birligi tamoyilining buzilishi – aynan bitta faoliyatning turli instansiylar tomonidan tartibga solinishi;

Aholining davlatni nazorat qilishdagi sust ishtiroki;

Davlat sektoridagi xizmat qilayotgan xizmatchilar daromadlarining xususiy sektorda topish mumkin bo'lgan daromadlardan kamligi;

Iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi;

Inflyatsiyaning yuqori darajasi;

Mamlakat yuqori boshqaruv organlarining aholidan uzilib qolganligi;

Mamlakatdagi diniy va axloq qoidalari.

Jahon mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurashning quyidagi usullari mavjud:

Ichki nazorat – bu usul boshqaruv apparatining o'zida nazoratni kuchaytiruvchi tuzilmalar (hat xil ichki inspeksiylar va boshqa nazorat organlari tuzish orqali) yaratishni taqazo etadi. Bu tuzilmaning asosiy vazifasi xodimlarning ichki etiket qoidalariga rioya qilishini nazorat qilishdir. Hozirgi kunda bizning yurtimizda ham bir qator huquqni muhofaza qilish organlarida aynan shu vazifani bajaruvchi ichki tuzilmalar yaratilgan;

Tashqi nazorat – bu usulda ijro apparatidan mustaqil tuzilmalarning mustaqilligini oshirish nazardautilib, aynan ushbu tuzilmalar orqali korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib boriladi. Ya'ni sud hokimiyatining maksimal darajada mustaqilligiga erishish ommaviy axborot vositalariga ko'proq erkinlik berish va h.k.

Saylov tizimi orqali kurashish – demokratik davlatlarda saylangan vakillarni korrupsiya uchun jazolashning asosiy usullaridan biri keyingi saylovlarda unga ovoz bermaslik hisoblanadi. Korrupsiyaga saylovlar orqali ta'sir o'tkazish eng samarali usul hisoblanadi.

Korruptsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan Shvetsiya, Singapur, Gonkong, Portugaliya kabi davlatlarning tarjibasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, korruptsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korruptsiyaga qarshi kurashda muhim o'rinni egallaydi.

Bunda Konstitutsiyaviy nazorat organlari, huquq – tartibot organlarining ahamiyati ortadi. Ya'ni, korruptsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan normalarni konstitutsiyaviy nazorat organi tomonidan konstitutsiyaga zid deb topish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish kabi metodlardan unumli foydalanish ushbu davlatlarni korruptsiya darajasi juda past bo'lgan davlatlar qatoriga olib chiqqan.

Insonni qiyin ahvolga tushiradigan, ruhan ezadigan holatlar ichida eng og'iriadolatsizlik hisoblanadi, deyish mumkin. Uning bir ildizi korrpsiya bilan bog'liq bo'lib, bu shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishida ifodalanadi.

Korruptsiya bu jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Ta'kidlab o'tish joizki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag'al bo'lishidan qay'iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo'yicha jahon hamjamiyati tominidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti.

Davlat apparati tizimida mansab suiiste'molchiligi, poraxo'rlik, uyushgan yoki korruption jinoyatchilikning ijtimoiy xavfliligi aynan shu tizim buzilishiga yoki zararlanishiga sabab bo'ladi. Davlatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizimiga putur yetkazadi. Korruptsiya jinoyatchiliginini mansabdorlik jinoyatlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Mansabni suisi'stemol qilish orqali mulkni talon – taroj qilish yoki poraxo'rlik jinoyatlari korruptsiya jinoyatchiligining eng xavfli ko'rinishlari bo'lib hisoblanadi.

Davlat organlari faoliyatida qonuniylikni ta'minlash muhim jarayon bo'lib, bu jarayondagi asosiy vazifalardan biri korruptsiya bilan bog'liq holatlarning oldini olish, unga yo'l qo'ymaslik hamda bunday salbiy illatga qarshi samarali kurash olib borishdir.

Aytish joizki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk davrdayoq korruptsiyaga qarshi kurashish masalasiga umum davlat miqyosidagi vazifa sifatida qaralib, uning oldini olish va davlat apparatini korruptsiyadan tozalash bo'yicha izchil va muntazam ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasining ko'pgina huquqni muhofaza qiluvchi organlari tarkibida korruptsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi alohida tuzilma va bo'limlar shakllantirildi.

Hozirda mamlakatimizda korruptsiyaning oldini olish, fosh etish va unga qarshi kurashish borasida tashkiliy – huquqiy choralar amalga oshirilib, korruptsiyaga qarshi kurashning huquqiy mexanizmi yaratildi.

Xalq tilida soddagina qilib aytganda – poraxo'rlik, keng ma'noda korruptsiya, deb ataluvchi hodisa barcha islohotlar ildiziga bolta urarkan, ushbu diplom ishida uni keltirib chiqaruvchi sabab va unga qarshi kurash choralarini tahlil etamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi: Huquqiy yetuklik barkamolikka eltadi// Toshkent – "Adolat" – 2011 yil.
2. Yaxshilikov J.Y, Muhammadiyev N.E.: Milliy g'oya – O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi// Toshkent – "Cho'lpon" – 2018 yil.
3. Odilqoriyev X.T, Razzoqov D.X.: Siyosatshunoslik// Toshkent – "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti – 2009 yil.
4. M.X.Rustambayev: O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksiga sharh umumiylari va maxsus qismlari// Toshkent – "Adolat" – 2016 yil.